Annotation: The scientific article presents findings, scientific proposals and recommendations for obtaining audit evidence, assessing the quality of data collected by the audit organization and the financial condition of the audited entity, as well as documenting them based on international standards.

Keywords: joint-stock company, audit organization, audit activity, audit evidence, analytical procedures, audit sampling.

Аннотация: В научной статье представлены выводы, научные предложения и рекомендации по получению аудиторских доказательств, оценке качества данных, собранных аудиторской организацией, а также финансового состояния аудируемого субъекта, их документированию на основе международных стандартов.

Ключевые слова: акционерное общество, аудиторская организация, аудиторская деятельность, аудиторские доказательства, аналитические процедуры, аудиторская выборка.

KIRISH

Auditorlik hujjatlarining muhimligi bir qator omillar va, birinchi navbatda, auditorning fikrini tasdiqlaydigan, shuningdek, auditorlik tartib-taomillarini bajarish bosqichlarini ochib beradigan dalillarni taqdim etish zarurati bilan asoslanadi. Shuningdek, auditorlik hujjatlari tekshiruvning audit faoliyati sifati ichki va tashqi nazorati nuqtai nazaridan belgilangan standartlarga muvofiq amalga oshirilgani haqida ma'lumotlardan iborat bo'ladi. O'zbekistonda auditorlik faoliyati amaliyotida ishchi hujjatlar tuzilmasi, miqdori va shakliga taalluqli muammolar doimo dolzarb bo'lib kelgan, chunki auditorlik faoliyati subyektlarining ko'rsatilayotgan xizmatlari sifatining tashqi tekshiruvi ko'rsatilgan hujjatlarda ma'lumotlarni ochib berish to'liqligiga va yetarli ekanligiga ham qaratilgan. Bunda me'yoriy-huquqiy tartibga solish va amalga oshirish nuqtai nazaridan XAS qo'llanishi hujjatlashtirish jarayonini yengillashtirdi va uni ichki va tashqi sifat nazoratida yanada shaffoflashtirdi.

Xalqaro audit standartlari turli vaziyatlarda ma'lumot to'plash va auditorlik hujjatlarini aks ettirish, boshqa standartlar bandlari bilan bog'lash xususiyatlarini aniq va batafsil ochib beradi, bu esa ularning yaqqol afzalligi hisoblanadi. Bunda XASda ishchi hujjatlar hajmi va mazmunini belgilashda o'zining professional mulohazalariga qarab ish tutish borasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatma bor.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy hisobotlarni tashqi audit tomonidan auditorlik tekshiruvining o'tkazilishi masalasi dolzarb hisoblanadi. Shu sababli mamlakatimizda tashqi audit xizmati natijalarini rasmiylashtirish va uni tegishli xalqaro standartlarga mos holda tuzish zarurati paydo bo'ladi.

Auditorlik tekshiruvlarini xalqaro standartlarga moslash, auditorlik hisobotlari va xulosasining sifati oshirish bevosita auditorlik dalillariga bog'liqdir. Auditorlik dalillarining yetariligi va mosligi tekshiruv sifatining oshishini ta'minlaydi.



Zamonaviy adabiyotlarda “Audit dalillari” tushunchasiga turli xil yondashuvlar mavjud.

Birinci yondashuv; S.M.Bichkovaning fikricha - audit dalillari “fakt” va “jarayon” sifatida ko‘rib chiqiladi. Dalillar - bu boshqa bir fakt yoki jarayon borligini tasdiqlash yoki rad etish uchun xizmat qilishi, moliyaviy hisobotning ishonchligi to‘g‘risida xulosani shakllantirishga imkon beradigan aniq bir haqiqat to‘g‘risida ma‘lumot olishi mumkinligini anglatadi.

Ikkinchi yondashuv - audit dalillari ma‘lumot manbai hisoblanadi. V.B Ivashkevich fikriga ko‘ra “audit dalillari buxgalteriya hisobining tekshiruvi natijasida olingan ma‘lumotlarning hujjatlashtirilgan manbalari”¹.

Uchinchi yondashuv - J. Robertson quyidagi ta‘rifini beradi; “audit dalillari bu - auditorning ma‘lumot olishdagi harakatlarini belgilaydi, ya‘ni auditorlarning fikriga ta‘sir qiladigan va ularning qarorlarini aniqlaydigan ma‘lumotdir”².

XAS № 500- “Auditorlik dalillari” nomli standartda auditorlik dalillariga quyidagicha ta‘rif berilgan: “Auditorlik dalili – Auditorlik fikri uchun asos bo‘lgan xulosalarga erishishda auditor tomonidan foydalanilgan ma‘lumot. Auditorlik dalili moliyaviy hisobotlar uchun asos bo‘lgan buxgalteriya yozuvlari va boshqa ma‘lumotlardan tashkil topadi”³.

Iqtisodchi olim I.Qo‘ziyevning fikricha, “Auditorlik dalillari – auditorlik tashkiloti tomonidan auditorlik tekshiruvi vaqtida yig‘ilgan va auditorlik xulosasini asoslovchi buxgalteriya hisobi ma‘lumotlari, analitik schyotlar qoldiqlari, boshlang‘ich hujjatlar va yig‘ma registrlar, boshqa auditor tomonidan to‘plangan axborotlar hisoblanadi”⁴.

S.M.Bichkova va Ye.Yu.Itigilova tomonidan quyidagicha fikr bildirishgan: “Auditorlik dalillari yetarli va maqsadga muvofiq bo‘lishi muhim hisoblanadi. Chunki ushbu ko‘rsatkichlar qanchalik to‘planishi auditni rejai va auditorlik tekshiruvlarining summasiga ham ta‘sir qiladi. Chunki auditorlik dalillari yetarli bo‘lishi audit xulosasi qanday bo‘lishi kerakligiga bevosita bog‘liq hisoblanadi.”⁵

Demak shunday qilib, bizning fikrimizcha auditorlik dalillari- auditorlik xulosasini ifoda etish uchun asos bo‘ladigan buxgalteriya hisobini tashkil etish, boshlang‘ich hisob va umumlashtiruvchi axborotlar, moliyaviy hisobotni tuzish uchun asos bo‘lgan ma‘lumotlar va schyotlarning qoldiqlari, biznes-reja axborotlari, tashqi axborot manbalaridan olingan ma‘lumotlar va buxgalteriya hisobiga taalluqli bo‘lmagan axborotlar hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda auditorlik dalillarini olish, baholash va hujjatlashtirish jarayonining nazariy-uslubiy hamda amaliy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida auditning xalqaro standartlari, xususan, AXS 500 “Auditorlik dalillari” va AXS 230 “Auditni hujjatlashtirish” standartlarida belgilangan talablar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi.

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish, hujjatli tahlil va ilmiy manbalarni o‘rganish usullaridan foydalanildi. Auditorlik dalillarining yetariligi, mosligi, ishonchligi hamda ularni audit faylida aks ettirish tartibi xalqaro standartlar va ilmiy adabiyotlarda berilgan yondashuvlar asosida o‘rganildi.

Shuningdek, tadqiqotda auditorlik tashkilotlari tomonidan ish hujjatlarini shakllantirish, audit dalillarini tizimlashtirish, auditorlik xulosasini asoslash hamda sifat nazorati talablariga rioya etish bilan bog‘liq masalalar tahlil qilindi. Mavjud nazariy qarashlar va xalqaro standartlar talablari asosida auditorlik dalillarini hujjatlashtirish jarayonining muhim jihatlari umumlashtirilib, ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Auditorlik dalillari haqida xalqaro standartlarda batafsil to‘xtalib o‘tilgan. Auditning xalqaro standartlari — AXS (International Standards on Auditing — ISAs)da standartlashtirish obyekti sifatida V — “Auditorlik dalillari” (500–599) nomli maxsus bo‘lim ajratilgan. Ushbu bo‘lim 9 ta standartni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasida esa shu vaqtgacha qabul qilingan auditorlik faoliyati milliy standartlaridan 6 ta standart ishlab chiqilgan.

1 Бычкова, С.М. Доказательства в аудите / С.М. Бычкова. – М.: Финансы и статистика, 1999. – 176 с

2 Ивашкевич, В.Б. Завершающая стадия аудиторской проверки / В.Б. Ивашкевич // Аудиторские ведомости – 2007. – №11. – С. 3–7

3 Робертсон, Дж. Аудит / Дж. Робертсон. – М.: KPMG, Аудиторская фирма «Контакт», 1993. – 496 с

4 Auditning xalqaro standarti 500-“Auditorlik dalillari”

5 Qo‘ziyev I.N. Auditorlik hisobotlarini tuzish va ularni umumlashtirish: nazariya va metodologik masalalar. Monografiya. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. 58-bet



Auditorlik dalillarini olishda moliyaviy hisobotning asosi bo'lgan boshlang'ich hujjatlar va buxgalterlik yozuvlari, shuningdek, boshqa manbalardan olingan tasdiqlovchi ma'lumotlardan foydalaniladi. Auditorlik dalillari yetarli va mos bo'lishi kerak.

Auditorlik tashkiloti yetarli va asoslangan holda xulosa berish uchun auditorlik dalillarini to'plash jarayonida, bizning fikrimizcha, quyidagi omillarga asosiy e'tibor qaratishi lozim, deb o'ylaymiz:

- aksiyadorlik jamiyatining buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisoboti va jamiyatda tashkil etilgan ichki audit hamda ichki nazorat tizimi xarakteri, shuningdek, ichki auditning mustaqilligi va nazorat riskini baholash jarayoniga baho berish;

- auditorlik tashkiloti tomonidan bajariladigan auditorlik amallari va audit ishlarining hajmi;

- auditorlar tomonidan to'plangan auditorlik dalillarining ma'lumot manbasi va ularning ishonchligini dalillar bilan isbotlash.

“Auditorlik dalillari” nomli auditorlik faoliyati milliy standarti 4-bandida keltirilgan qoidaga ko'ra, auditorlik dalillarini olishda moliyaviy hisobotning asosi bo'lgan boshlang'ich hujjatlar va buxgalteriya yozuvlari, shuningdek, boshqa manbalardan olingan tasdiqlovchi ma'lumotlardan foydalaniladi.

Auditorlik amallari auditorlik tashkilotining moliyaviy hisobotda xato-kamchiliklar mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash uchun auditorlik dalillarini olish maqsadida bajaradigan amallarini ifodalaydi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida auditorlik amallarini bajarishda quyidagi masalalarga alohida e'tibor berilishi lozim, deb o'ylaymiz:

- tekshirilayotgan moliyaviy hisobotlarda hisobot davri yakunlangan sanada majburiyatlar va aktivlarning mavjudligini nazorat qilish;

- aksiyadorlik jamiyati moliyaviy hisobotida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida aktivlar, majburiyatlar, xo'jalik operatsiyalari va hodisalarning to'liq aks ettirilishini ko'rib chiqish;

- aksiyadorlik jamiyati moliyaviy holatida aktivlar, kapital va majburiyatlarning mos qiymatlarda aks ettirilishi;

- moliyaviy hisobot shaklida aksiyadorlik jamiyatining hisobot davrida sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalari o'z ifodasini topganligi va hodisalarning aniq summalari aks ettirilganligi nazoratini tashkil qilish;

- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida daromad va xarajatlarning tegishli davrlarda aks ettirilishini tekshirish.

Auditorlik dalillarining yetarliligi auditorlik tashkilotiga fikr bildirish uchun zarur bo'lgan auditorlik dalillarining miqdoriy o'lchamini (chegarasini) ifodalaydi.

Auditorlik dalillarining mosligi auditorlik tashkilotining fikr bildirishida auditorlik dalillarining ahamiyati va ishonchligini (aniqligini) bildiruvchi auditorlik dalillarining sifat o'lchamini ifodalaydi.

Auditorlik dalillari, agar hujjatlar va aktivlar, xususi kapital hamda majburiyatlarning haqiqiy holati bilan tasdiqlansa, ishonchli hisoblanadi.

“Auditni hujjatlashtirish” 230-son AXSning 6-bandida belgilab qo'yilganki, auditor hujjatlari — bajarilgan auditorlik amallari, olingan tegishli auditorlik dalillari va auditor erishgan xulosalarning yozma shaklda qayd qilinishi. Ayrim hollarda “ish hujjatlari” yoki “ish qog'ozlari” kabi atamalar ham ishlatilishi mumkin⁶.

1. Ish hujjatlari quyidagi holatlarda qo'llanadi:

- auditni rejalashtirish va bevosita o'tkazishda;

- bajarilgan ishni joriy nazorat qilish jarayonida;

- auditorning fikrini tasdiqlaydigan dalillarni qayd qilishda.

Muayyan auditorlik topshirig'i bo'yicha ish hujjatlari “audit fayli”ga birlashtirilishi mumkin.

“Audit fayli” — bu muayyan kelishuvga tegishli audit hujjatlarini o'z ichiga oladigan yozma ma'lumotlardan tashkil topgan bir yoki bir nechta papkalar, elektron yoki boshqa shakldagi ma'lumot saqlash vositasidir.

Ish hujjatlariga talablar auditni to'liq tushunishni ta'minlash uchun yetarlicha to'liq va batafsil shaklda ifodalangan bo'lishi lozim.

Bunda ish hujjatlari:

- kelgusi auditorlik tekshiruvlari uchun uzluksiz ahamiyatli bo'lgan masalalar bo'yicha hujjatlarni saqlashi;

- auditni samarali rejalashtirishga yordam berishi;

- auditorlik guruhi a'zolarining hisobdorligini ta'minlashi;

- auditorlar ish sifatining ichki va tashqi nazoratini o'tkazish uchun imkoniyat yaratishi lozim⁷.

AXSga muvofiq ish hujjatlariga qo'yiladigan talablar 1-jadvalda tizimlashtirilgan va aks ettirilgan.

6 Бычкова С.М., Итыгилова Е.Ю. Международные стандарты аудита. М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2008. 432с. С.202

7 230-son AXS “Auditni hujjatlashtirish” ning 6 bandi



1-jadval
Auditorning ish hujjatlariga qo'yiladigan talablar⁸

Ish hujjatlariga talab	Talab mazmuni
Zamonaviylik	Ish hujjati o'z vaqtida, ya'ni bevosita audit tartib-taomillari yakun topishi bilan tuzilgan bo'lishi lozim. Sifat nazorati xalqaro standarti (SNXS) 1 ⁹ audit faylini o'z vaqtida shakllantirish tartib-taomillari va siyosati belgilash bo'yicha auditorlik tashkilotlariga talablardan iborat. Ko'rsatilgan standartga muvofiq, auditorlik xulosasi tuzilgan sanadan keyin 60 kunlik davr odatda uning davomida yakuniy audit fayli shakllantirish mumkin bo'lgan yakuniy muddat hisoblanadi. Garchi SNXS1 talabi qat'iy majburiy bo'lmasada, audit fayli shakllantirishni o'z vaqtida yakunlash uchun ko'rsatilgan muddatdan o'tib ketmagan ma'qul. Ish hujjatlarini ish tugagandan so'ng tayyorlash tavsiya etiladi, chunki bu ularning aniqligi va to'liqligiga ta'sir qilishi mumkin. Ushbu qoida nafaqat auditorlar intizomini kuchaytiradi, balki topshiriqni bajarish sifatini yaxshilaydi.
Yetarililik va to'liqlik	Ish hujjatlari auditning barcha tafsilotlarini to'liq oshkor etmasligi kerak. Ularning boshqa auditorlar va tekshiruvchilar uchun tushunarli bo'lishi va bajarilgan ishlar to'g'risida tasavvur hosil qilishi juda muhimdir.
Rasmiylashtirish tartibi	Ish hujjatlari qog'oz va elektron shaklda topshirilishi mumkin. Ish hujjatlarini taqdim etishni tanlash auditorlarga bog'liq. Qoidaga ko'ra, auditorlik tashkilotlarida auditorning ish hujjatlari tekshirish bosqichlari va obyektlariga muvofiq tipologizatsiya qilinadi va kodlanadi, bu esa kerakli hujjatlarni topishda qulaylikni ta'minlaydi.
Ierarxiya	Ish hujjatlari auditorlik guruhi a'zolarining hisobdorligini ta'minlashi kerak
Muayyan audit topshirig'iga muvofiqlik	Ish hujjatlari guruhlangan va har bir auditning yoki auditorlik majburiyatining xususiyatlarini o'chadigan tarzda taqdim etilishi kerak, shuning uchun har bir auditorlik tashkilotida tasdiqlangan shablonlarni ishlatish har doim ham o'zini oqlayvermaydi. Ehtimol, muayyan vazifalarning xususiyatlari (audit topshirig'ining predmeti, tashqi foydalanuvchilarning axborot-tahliliy ehtiyojlari, auditning muhim masalalarini oshkor etish va boshqalar) aniq hujjatlarni ishlab chiqishni talab qilishi mumkin.

Auditning xalqaro standarti quyidagilarni hujjatlashtirish zarurligini belgilab beradi:

- ko'rib chiqilgan moddalar va masalalarning asosiy xususiyatlari;
- audit davomida o'rganilgan muhim masalalar va auditor tomonidan qilingan xulosalar;
- tekshiruv davomida qilingan standartlar tamoyillaridan chekinish;
- audit hujjatlarini shakllantirgan va tekshirgan shaxslar haqida ma'lumot.

Bundan tashqari, 230-son AXSning 3-bandida aytilganki, auditor tadbirkorlik subyekti yozuvlarining, masalan, ahamiyatli va o'ziga xos shartnomalar hamda kelishuvlarning ko'chirmasi yoki nusxalarini auditni hujjatlashtirishning qismi sifatida keltirishi mumkin. Bunda ish hujjatlari tadbirkorlik subyekti buxgalteriya yozuvlarining o'rnini bosmaydi.

Masalan, ish hujjatlari tarkibiga mazmunan zarurat bo'lmagan birlamchi hujjatlar nusxalarini kiritmaslik maqsadga muvofiq. Ish hujjatlarini tayyorlash va tekshirish samaradorligini oshirish maqsadida auditorlik tashkilotida namunaviy hujjatlar shakllarini ishlab chiqish tavsiya etiladi, masalan, ish hujjatlari audit fayli (papka) standart strukturasi, blanklar, so'rovnomalalar, namunaviy xatlar va murojaatlar va h.k.

Ta'kidlash joizki, xorijiy mamlakatlarda ish hujjatlarining unifikatsiya qilingan shakllari ko'zda tutilmagan, shu sababli har bir audit kompaniyasining hujjatlar ro'yxati mustaqil ravishda belgilanadi, lekin shu bilan bir paytda xalqaro standartlarga rioya qilish auditga yondashuvni, mos ravishda, ish hujjatlari tarkibi va strukturasi yondashuvni yagona shaklga keltirish imkonini beradi.

AXSga muvofiq audit faylini shakllantirish tartibini batafsilroq ko'rib chiqib, bir qator afzalliklarni qayd etish zarur. Xususan, ko'plab standartlar "Audit hujjatlari" alohida bandidan iborat bo'lib, unda muayyan masala bo'yicha auditor qaysi ish hujjatlarini shakllantirishi zarur ekanligi batafsil bayon qilingan. Xalqaro standartlarda ko'rib chiqilgan tekshiruvlarning asosiy bosqichlari bo'yicha ish hujjatlarini tizimlashtirish 2-jadvalda aks ettirilgan.

8 230-son AXS "Auditni hujjatlashtirish" 2-3 bandlari

9 Sifat nazoratining xalqaro standarti (SNXS) 1 "Moliyaviy hisobotlar auditini va ularni ko'rib chiqish, ishonch bildirish va turdosh xizmatlar ko'rsatish bo'yicha boshqa kelishuvlarni bajaruvchi auditorlik tashkilotlarida sifat nazorati". URL: <http://minfin.ru/ru/performance/audit/standarts/> international/documents



2-jadval

Audit faylida mavjud asosiy ma'lumotlar (AXSga muvofiq)

Shartnomadan oldingi bosqich va auditni rejalashtirish bosqichi	Auditorlik dalillari to'plash bosqichi	Auditorlik fikri shakllantirish va auditorlik xulosasi tayyorlash bosqichi
1. Auditorlik shartnomasi bo'yicha kelishuv xati (ISA 210)	1. Muhim buzib ko'rsatishlar baholangan riskiga javoban umumiy xarakterli auditorlik amallari, shuningdek, bajarilgan qo'shimcha auditorlik amallari xarakteri, muddati va hajmi (AXS 330)	1. Audit o'tkazish jarayonida aniqlangan buzib ko'rsatishni tahlil qilish. Muayyan turdagi operatsiyalar, hisoblardagi qoldiqlar yoki agar mavjud bo'lsa, ularni ochish uchun ahamiyatlilik darajasi yoki darajalaridan oshganligini baholash. Tuzatilmagan buzib ko'rsatishlarning asosiy koeffitsientlarga yoki tendensiyalarga va qonunchilik talablariga rioya qilinishiga ta'sirini baholash (AXS 450)
2. Tegishli axloqiy talablarga rioya etilishi munosabati bilan aniqlangan muammolar va ularni yechish yo'llari Muayyan audit topshirig'i bo'yicha mustaqillik talablariga rioya qilinishi masalasi bo'yicha xulosalar. Mijozni qabul qilish, mijoz bilan munosabatlarni va audit kelishuvlari ustida ishni davom ettirish xususida chiqarilgan xulosalar. Audit kelishuvini bajarish jarayonida olingan maslahatlar xususiyati va ko'lami, shuningdek bunday maslahatlar asosida chiqarilgan xulosalar	2. Audit strategiyasi, rejasi va dasturiga kiritiladigan o'zgarishlar (AXS 300)	2. Korporativ boshqaruv uchun javobgar ma'lum bir masalalar haqida shaxslarni yozma ravishda xabardor qilish (AXS 260, 265)
3. Audit strategiyasi, audit rejasi, audit dasturlari (AXS 300)	3. Auditor tomonidan eng muhim audit masalalari bo'yicha qilingan xulosalar, shu jumladan xatolar va noan'anaviy holatlar va bu bilan bog'liq auditor tomonidan ko'rilgan harakatlar to'g'risida ma'lumot (AXS 540, 550, 600, 610 va b.)	3. Auditorlik xulosasi (AXS 700–810)
4. Tashkilot va uning muhiti haqida, shuningdek ichki nazorat tizimining har bir tarkibiy qismi haqida olingan bilimning eng muhim elementlari. Risklarni baholash tartib-taomillari, muhim buzib ko'rsatishning aniqlangan va baholangan risklari (AXS 315)	-	-
5. Muhimlik darajasini hisob-kitob qilish va uni taqsimlash (AXS 320)	-	-

Shunga e'tibor qaratish kerakki, auditorlik tekshiruvining asosiy bosqichlari shartli ravishda ajratilgan, masalan, standartlarga muvofiq audit jarayonlarini rejalashtirish butun audit davomida amalga oshiriladi.

Xorijiy olimlar auditorlik kompaniyalari va auditorlariga joriy va doimiy audit fayllarini tuzishni tavsiya etadilar.

Joriy audit bilan bog'liq yangilangan yoki dastlabki ma'lumotlarni saqlash uchun auditor tomonidan shakllantirilgan doimiy fayl kerak. Ushbu fayl deyarli o'zgarimas ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va uzoq vaqt davomida o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan tegishli ma'lumot manbai hisoblanadi.

Doimiy faylga quyidagi ish hujjatlari kiritilishi mumkin:

- iqtisodiyot subyekti faoliyatining qonuniyligini tavsiflovchi hujjatlar: davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma, ustav va unga kiritilgan o'zgartirishlar, faoliyatning ayrim turlari bilan shug'ullanish huquqini beradigan litsenziyalar va boshqalar;

- iqtisodiyot subyekti to'g'risidagi ma'lumotlar: moliya-xo'jalik faoliyati tarixi, umumiy strukturasi, boshlang'ich kapital manbalari va boshqalar;



• hisob va ichki nazoratni tashkil etish jarayoni to'g'risidagi ma'lumotlar: hisob siyosati bo'yicha buyruqlar, hisob va tahlilni avtomatlashtirish to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar, schyotlar ishchi rejasi, ichki nazorat tizimini tashkil etish to'g'risidagi ma'lumotlar;

• oldingi davr uchun auditorlik xulosalari.

Audit hujjatlariga yakuniy bosqichda kiritilishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar faqat ma'muriy xarakterga ega bo'lishi mumkin, masalan, eskirgan hujjatlashtirishni o'chirish yoki tashlab yuborish, auditorning ish hujjatlarini saralash, tartiblashtirish va kesishgan murojaatlash va h.k. (AXS 230ning A22-bandi). Auditor ish hujjatlarini umumiy faylga to'playdi va yakuniy fayl yaratish ma'muriy jarayonini xulosa sanasidan keyin belgilangan muddatda tugallaydi. Auditorlik hujjatining yakuniy shakllanishini tugatish muddati audit xulosasi olingan sanadan keyin 60 kunni tashkil qiladi (SNXS 1ning A54-bandi). Audit fayli to'liq shakllantirib bo'lingandan keyin to saqlash muddati yakunlangunga qadar undan birorta hujjatni o'chirish taqiqlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Auditorlik dalillari auditorlik xulosasini ifoda etish uchun asos bo'ladigan buxgalteriya hisobini tashkil etish, boshlang'ich hisob va umumlashtiruvchi axborotlar, moliyaviy hisobotni tuzish uchun asos bo'lgan ma'lumotlar va schyotlarning qoldiqlari, biznes-reja axborotlari, tashqi axborot manbalaridan olingan ma'lumotlar va buxgalteriya hisobiga taalluqli bo'lmagan axborotlar hisoblanadi. Ushbu ma'lumotlar auditorlik xulosasini ifoda qilish uchun yetarlicha asos bo'lib xizmat qilishi lozim. Albatta, ushbu dalillarni to'plash bilan birga ularga analitik ishlov berish, ularni tahlil qilish va tegishli xulosa qilish kerak. Shu maqsadda auditorlik amallarini ko'rib chiqish zaruriyati vujudga keladi.

Audit kelishuvlari bo'yicha hujjatlarni saqlash muddati, odatda, auditor hisoboti sanasidan boshlab besh yildan kam bo'lmasligi lozim. Sifat nazoratining xalqaro standarti 1-son auditorlik tashkilotining audit hujjatlariga egalik huquqini tan oladi va auditorning ish hujjatlarida mavjud ma'lumotlarni ochish faqat auditorlik tashkiloti hamda uning xodimlarning mustaqillik talabiga zid kelmagan hollarda o'rinli bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Auditning xalqaro standarti 500 "Auditorlik dalillari" (ISA 500 "Audit Evidence").
2. Auditning xalqaro standarti 230 "Auditni hujjatlashtirish" (ISA 230 "Audit Documentation").
3. Бычкова С.М. Доказательства в аудите. — М.: Финансы и статистика, 1999. — 176 с.
4. Бычкова С.М., Итыгилова Е.Ю. Международные стандарты аудита. — М.: ТК Велби; Проспект, 2008. — 432 с.
5. Ивашкевич В.Б. Завершающая стадия аудиторской проверки // Аудиторские ведомости. — 2007. — № 11. — С. 3–7.
6. Робертсон Дж. Аудит. — М.: KPMG; Аудиторская фирма "Контакт", 1993. — 496 с.
7. Sifat nazoratining xalqaro standarti 1 "Moliyaviy hisobotlar auditi va ularni ko'rib chiqish, ishonch bildirish va turdosh xizmatlar ko'rsatish bo'yicha boshqa kelishuvlarni bajaruvchi auditorlik tashkilotlarida sifat nazorati" (SNXS 1).
8. Qo'ziyev I.N. Auditorlik hisobotlarini tuzish va ularni umumlashtirish: nazariya va metodologik masalalar. Monografiya. — T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015. — 58-b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>